



**YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARI
TABDILLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti matnshunoslik va
adabiy manbashunoslik yo‘nalishi II kurs magisti*
Gulomova Maftuna Azambek qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraxoniylar davri adabiy muhiti vakili Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining o‘zbek tilidagi tabdillari tahlil qilinadi. Jumladan, Fitrat, Qayum Karimov, Emin Usmon, Fazliddin Ravshanov, Abdulhamid Pardayev, Boqijon To‘xliyev kabi olimlar tabdillari o‘zaro qiyoslanib farqli jihatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: “Qutadg‘u bilig”, tabdil, didaktik doston, turkiy adabiyot, badiiy talqin, tahlil.

Kirish: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqimizning boy ma’naviy merosi haqida so‘z yuritarkan, ajdodlarimiz qoldirgan nodir asarlar yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutishini alohida ta’kidlaydi: “Buyuk ajdodlarimiz yaratgan bebaho meros xalqimiz ma’naviyatining mustahkam poydevoridir”. XI asr turkiy adabiyotining yirik namoyandasi Yusuf Xos Hojib tomonidan yaratilgan “Qutadgu bilig” asari turkiy xalqlarning bebaho ma’naviy merosi hisoblanadi. Asar o‘zida davlat boshqaruvi, axloq, ilm-ma’rifat, komil inson tarbiyasi kabi masalalarni mujassam etgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

“Qutadgu bilig” qadimgi turkiy tilda yozilgani sababli uni zamonaviy kitobxonlarga tushunarli tarzda yetkazish ehtiyoji tug‘ildi. Natijada turli olim va adabiyotshunoslar tomonidan asarning tabdillari yaratildi. Bu tabdillar bir-biridan ilmiylik darajasi, badiiy uslubi, matnga munosabati hamda til imkoniyatlaridan foydalanishi bilan farqlanadi.

“Qutadg‘u bilig” asari tabdillarini tahlil qilar ekanmiz, 1971-yil nashr qilingan Qayum Karimov tabdiliga e’tiborimizni qaratamiz. Tabdil 959 betdan iborat va krill alifbosida qilingan. So‘z boshi, “Qutadg‘u bilig” asari haqida, “Qutadg‘u bilig”ni transkripsiya va tavsif qilish prinsiplariga doir qism va uch nusxadan parcha rasmi keltirilib, 48-betdan asarni transkripsiyasi va mazmun qismi beriladi. Avvalida Allohga hamd qismi, 65-betdan bayt ko‘rinishidagi matnlari keltirilgan. Asar mundarijasida har bir bob nomi keltirilgan. Qayum Karimov tomonidan amalga oshirilgan tabdil asarning o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishida muhim bosqich hisoblanadi. Olim asarni tabdil qilib qolmadan, uning ilmiy matnini tayyorlagan va lug‘aviy, mazmuniy



jihtadan izohlagan. Shu tufayli Qayum Karimov ishlari oddiy tabdil emas, balki ilmiy-adabiy talqin sifatida baholanadi. Uning tabdilining asosiy xususiyatlaridan biri – asliyatga sodiqlikdir. U asardagi baytlarning mazmunini saqlagan holda, orginal matnning badiiy va falsafiy ruhini kitobxonga yetkazib bergan. Shuningdek, olim qadimgi turkiy soʻzlarning koʻpini butunlay almashtirib yubormay, ayrimlarini izohi bilan bergan. Bu orqali kitobxon asarning tarixiy til qatlamini his qila oladi va asarni faqat badiiy oʻqish uchun emas, balki ilmiy manba sifatida ham ahamiyatli ekanligini koʻrsatadi. Yana bir muhim jihati shundan iboratki, Qayum Karimov tabdilida asarning didaktik mohiyati toʻliq ochib berilganligidir. Muallif asarda ilgari surilgan adolat, aql, saodat va qanoat timsollarini sharhlash orqali ularning maʼnaviy falsafiy mazmunini yoritib bergan. Shuning uchun uning tabdili keyingi tabdilchilarga metodik asos vazifasini oʻtab bergan, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Ikkinchi tahlilga tortayotgan tabdil matnimiz Fazliddin Ravshan tomonidan amalga oshirilgan. Fazliddin Ravshanovning “Qutadgʻu bilig” tabdili zamonaviy oʻzbek adabiyotshunosligida alohida oʻrin tutadi. U 2015-yilda asarning hozirgi oʻzbek tilidagi toʻliq sheʼriy tabdilini nashr ettirgan. Tabdil 374 betdan iborat. Kitobda biz Yusuf Xos Hojibga ishlangan rasmni koʻrishimiz mumkin. Soʻng mundarija qismi berilib, boblar bayt va misralar soni bilan belgilangan. Bu matnda sheʼriy yondashuv oʻz aksini topgan. Ushbu tabdilning asosiy xususiyati shundaki, muallif asarni oddiy nasriy bayon tarida emas, sheʼriy shaklda zamonaviy tilga tabdil qilgan. Bu esa tabdilni boshqalaridan ajratib turuvchi belgisidir. Fazliddin Ravshanov asliyatdagi bayt tuzilishini va badiiy ohangni imkon qadar saqlashga harakat qiladi. Asardagi hikmatli soʻzlar, pand-nasihatlar hamda falsafiy mushohadalar sheʼriy shaklda berilgani sababli oʻquvchi asarni asl poetik tabiatini his qilishiga yordam beradi. Shu jihatdan uning tabdili mazmunni yetqazish bilan birga estetik taʼsirni ham saqlaydi. Muallifning yondashuvida asliyatga sodiqlik kuchli seziladi. Qadimgi turkiy mtnlarda uchraydigan ayrim ramziy timsollar, obrazlar va tarixiy tushunchalar imkon qadar saqlanib, zamonaviy oʻquvchi uchun sodda shaklda ifodlanadi. Bu holat tabdilga ilmiy va badiiy qiymat beradi. Ayniqsa, Kuntugʻdi, Oytoʻldi, Oʻgdulmish va Oʻzgurmish singari timsollar mazmuni chuqur saqlangan holda talqin etiladi.

Yana bir muhim jihati shundaki, boshqa ayrim tabdillarda asar nasriy shaklda qisqartirib berilgan boʻlsa, Fazliddin Ravshanov toʻliq sheʼriy talqinni tanlagan. Bu esa asarning asl tuzilishini saqlashga xizmat qiladi.

Uchinchi oʻrganadigan tabdilimiz Emin Usmon tomonidan qilingan tabdil boʻlib, u zamonaviy talqinlar orasida badiiylikka yaqinligi bilan ajralib turadi. U tabdilda mazmunni oddiy bayon qilish bilan cheklanmay, asliyatning sheʼroy ohangi va hikmatli uslubini saqlashga intilgan. Sheʼriy usulda qilingan bu



tabdil 6591 bayt, 85 bob, 483 betdan iborat. Emin Usmon tabdilining eng muhim xususiyati – bayt shaklini saqlashga bo‘lgan intilishidir. Asliyatdagi ko‘plab misralar zamonaviy o‘zbek she‘riyati mezonlariga moslashtirilgan holda beriladi. Natijada kitobxon asarning mazmuni bilan birga uning badiiy ta‘sirini ham his qiladi. Masalan, ayrim qadimiy atamalar yonida izohi berilishi o‘quvchiga matnni tushunishini osonlashtiradi, shu bilan birga asliyat ruhini yo‘qotmaydi. Tabdilda asarning ma‘naviy-falsafiy mazmuni kuchli aks ettirilgan. Adolat, davlat, aql va qanoat kabi ramziy tushunchalar she‘riy ifoda orqali berilgani uchun asarning didaktik mohiyati ta‘sirchanroq namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchi tahlilga tortiladigan tabdil Boqijon To‘xliyev tomonidan amalga oshirilgan matndir. Olim asarning to‘liq ilmiy tarjimasidan ko‘ra, ko‘proq o‘quvchi uchun moslashtirilgan adabiy bayon harakteriga ega. U asliyatdagi qadimgi turkiy matnni so‘zma-so‘z ko‘chirishni maqsad qilmydi; aksincha, undagi mazmun v g‘oyani bugungi adabiy til me‘yorlariga mos ravishda ifodalashga intiladi. Shu jihatdan uning ishi tabdilchilik an‘anasining zamonaviy namunasi sifatida qaraladi. Boqijon To‘xliyev tabdilining asosiy maqsadi – “Qutadg‘u bilig”ni maktab o‘quvchilari, talabalar va keng kitobxonlar uchun tushunarli qilishdir. Chunki asarning asl matni qadimgi turkiy tilga mansub bo‘lib, uni maxsus tayorgarliksiz, shunchaki o‘qib ketish qiyin. Shuning uchun tabdilchi murakkab baytlarni sodda nasriy ifodaga aylantiradi, ba‘zan esa qisqa izohlar bilan to‘ldiradi. Tabdilning til xususiyatlari alohida e‘tiborga loyiq. Muallif asliyatdagi ko‘plab arxaik so‘zlarni zamonaviy o‘zbekcha muqobili bilan almashtiradi. Masalan, davlat boshqaruvi, axloq, aql-zakatga oid tushunchalar bugungi o‘quvchi anglay oladigan leksik birliklar orqali ifodalanadi. Bu orqali matnni o‘qish yengillashadi. Boqijon To‘xliyev tomonidan tayyorlangan asar matnida ayrim boblar tushib qolgan, tili o‘quvchilarga moslashtirib, soddalashtirilgan va ham she‘riy va nasriy sharhlar keltirilgan. Ilmiy jihatdan qaraganda, Boqijon To‘xliyev tabdili “Qutadg‘u bilig”ning zamonaviy o‘zbek kitobxoniga yetqazishda muhim ko‘prik vazifasini o‘taydi. Asarning mazmunini saqlagan holda, o‘quvchiga sodda va ravon tilda tabdilni amalga oshirgani uning eng katta yutug‘idir.

Xulosa qilib aytganda, Qutadg‘u bilig asari mavzu jihatidan serqirra va qomusiy xarakterga ega bo‘lgan nodir adabiy yodgorlikdir. Unda davlat boshqaruvi, adolat, axloq, ilm-ma‘rifat, oilaviy munosabatlar hamda tasavvufiy-falsafiy qarashlar o‘zaro uyg‘un holda tasvirlangan. Yusuf Xos Hojib asar orqali komil inson va ideal jamiyat haqidagi qarashlarini badiiy-falsafiy usulda ifodalagan. Shu sababli “Qutadg‘u bilig” bugungi kunda ham o‘z ilmiy va ma‘naviy ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur tabdillar esa asarni bugungi avlodga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021
2. Pardayev A. Qutadgu bilig talqini va poetikasi. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Karimov Q. Qutadgu bilig va o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 1971.
4. Emin Usmon. Qutadgu bilig tabdili. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
6. Ravshanov F. Qutadgu biligning zamonaviy talqini. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadgu bilig. – Toshkent: Yulduzcha, 1990.
8. Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
9. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.